



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 09 | pp. 221-227 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

SPORT MUASSASALARINI MOLİYALASHTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA KONSEPTUAL JIHATLARI



M.N.Mamatov

TDIU mustaqili tadqiqotchisi,
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti,
“Iqtisodiyot” kafedrasida katta o’qituvchisi,
mamatovmirzied@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada sport muassasalarini moliyalashtirishning huquqiy asoslari tadqiq etilgan. Mustaqillik davrida sport sohasini moliyalashtirish borasida me’yoriy-huquqiy xujjatlarni qabul qilinishi va konseptual jihatlari yoritilgan. Shu bilan birga sport sohasini moliyalashtirish borasida MDH davlatlarida qabul qilingan me’yoriy-huquqiy xujjatlar taqqoslama tahlil qilingan holda respublikamizda sport sohasini moliyalashtirishning huquqiy jihatlari takomillashtirish borasida takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit soʻzlar: sport huquqiy asoslari, sport sohasi, sportni moliyalashtirish, Rossiya qonunchiligi, Belorusiyada sportni moliyalashtirish, Qozogʻistonda sportning huquqiy asoslari.

Аннотация: В статье исследуются правовые основы финансирования спортивных организаций. Освещены принятие нормативно-правовых документов по финансированию спортивной отрасли в период независимости и их концептуальные аспекты. Проведен сравнительный анализ нормативно-правовых документов, принятых в странах СНГ по вопросам финансирования спортивной отрасли, а также разработаны предложения по совершенствованию правовых аспектов финансирования спортивной отрасли в нашей республике.

Ключевые слова: правовое регулирование спорта, спортивная отрасль, финансирование спорта, российское законодательство, финансирование спорта в Беларуси, правовое регулирование спорта в Казахстане.

Annotation: The article studies the legal basis of financing sports institutions. The adoption of regulatory and legal documents on financing the sports sector during the period of independence and their conceptual aspects are highlighted. At the same time, a comparative analysis of regulatory and legal documents adopted in the CIS countries on financing the sports sector is carried out, and proposals are developed to improve the legal aspects of financing the sports sector in our republic.

Keywords: legal framework of sports, sports sector, sports financing, Russian legislation, financing of sports in Belarus, legal framework of sports in Kazakhstan.

Kirish

Respublikamizning dunyo davlatlari safiga qoʻshilishi va jahon arenalarida obru-eʼtibor qozonishida jismoniy tarbiya va sport sohasini oʻziga xos oʻrni mavjud. Shu bois,

jismoniy tarbiya va sport sohasi bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan xizmat ko'rsatuvchi sohalardan biri sifatida aynan, sport sohasini ustuvor darajada rivojlantirish, qolaversa, sport sohasi rivojlanishining huquqiy asoslarini tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda har qanday tarmoq va sohada rivojida qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar tashkiliy-huquqiy jihatdan rivojlantirishda dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar doirasida jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish borasida islohotlarning izchil davom ettirilishi sohada yangi xizmat ko'rsatish, sport infratuzilmasini rivojlantirish, xalqaro hamkorlik munosabatlarini shakllantirish, sport tashkilotlari faoliyatini shakllantirish, jismoniy tarbiya va sportni moliyalashtirish tizimini tartibga solish hamda respublika va xalqaro sport musobaqalarida ishtirok etishda muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mamlakatimiz mustaqilikka erishish sharofati bilan boshqa tarmoq va sohalar kabi jismoniy tarbiya va sport sohasini tashkil etish va shakllanishiga asos bo'lgan huquqiy poydevori ilk bor 1992-yil 14-yanvarda 513-XII-sonli "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunga ko'ra, "Jismoniy tarbiya O'zbekiston Respublikasining xalqlari milliy madaniyatining ajralmas qismi, jismoniy va ma'naviy kamolotning muhim vositasi bo'lib, O'zbekiston Respublikasining xalqlari o'rtasida do'stlikni mustahkamlash, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot ishiga xizmat qiladi" [1].

O'zbekiston Respublikasi Hukumati jismoniy tarbiya va sport sohasida xalqaro hamkorlik borasida dastlab 1995-yilda Gruziya Respublikasi Hukumati o'rtasida bitim imzolandi. Ushbu bitimga ko'ra, ikki mamlakat xalqlari o'rtasidagi do'stona munosabatlar va sport aloqalarini rivojlantirishga, Olimpiya xartiyasi maqsadlari va tamoyillariga sodiqlik, sport jamoalari va delegatsiyalarini o'zaro almashish, sport uskunalari va buyumlarini o'zaro almashish, sport inshootlari qurish va rekonstruksiya qilishda hamkorlik qilish hamda moliyaviy xarajatlarni qoplash masalalari o'z aksini topgan [2].

O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" gi qonunning 2000-yil 26-mayda yangi tahrirda qabul qilinishi sohada o'tkazilgan islohotlarning ikkinchi bosqichini boshlab berdi. Ushbu qonunda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari belgilandi, ya'ni: insonparvarlik, demokratizm, fuqarolar jismoniy tarbiyasining uzluksizligi va davomiyligi, jismoniy tarbiya va sport tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi kabi masalalar o'z ifodasini topgan. Shuningdek, ushbu qonunning 19-moddasida jismoniy tarbiya va sportni moliyalash respublika byudjeti va mahalliy byudjet hisobidan amalga oshirilishi belgilab berildi [3].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 14-iyundagi "Sport terma jamoalari to'g'risidagi Nizomni hamda sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar ish rejasini shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida" gi 173-sonli qarorini qabul qilinishi sport terma jamoalari faoliyatini tartibga solishda muhim huquqiy hujjat sifatida qabul qilindi. Ushbu nizom asosida "sport yoki ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini, musobaqalarni moliyalashtirishning rejalashtirilayotgan manbaalri, shu jumladan, byudjetdan tashqari manbaalari ko'rsatilgan holdagi moliyaviy-iqtisodiy asoslash" o'z aksini topgan. Moliyalashtirish bevosita

respublika va hududiy kalendar rejalarida nazarda tutilgan sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti va Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari mablag'lari hisobiga, ushbu maqsadlarga ajratilgan mablag'lar doirasida, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi [4].

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada mavzu bo'yicha O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan me'yoriy-huquqiy xujjatlar va mahalliy olimlarning tadqiqotlari o'rganilgan. Shuningdek, maqolada amaliy jihatdan MDH davlatlarida sohaga tegishli qabul qilingan qonun xujjatlari taqoslama o'rganilgan, statistik kuzatish, mantiqiy fikrlash, jadval va grafik, solishtirma tahlil kabi usullardan foydalanilgan.


Tahlil va natijalar muhokamasi

Yangi O'zbekiston Respublikasining umumxalq Referendumi asosida qabul qilingan Konstitutsiyasida ham bevosita jismoniy tarbiya va sport sohasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, 48-moddasida "Davlat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi" deb ta'kidlab o'tilgan [5].

Aytish joizki, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga bo'lgan e'tibor va uning rivojida davlatning roli katta ahamiyatga ega ekanligi e'tirof etilgan.

Respublikamizda jismoniy tarbiya va sport sohasini moliyalashtirish va unda byudjet mablag'laridan samarali foydalanish borasida qator qonun, qaror va farmonlar ham huquqiy ahamiyatga ega. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 03-sentyabrdagi 414-sonli "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida" gi qarori qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tizimidagi yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan idoraviy mansub tashkilotlarning byudjetdan tashqari jamg'armalariga tushadigan mablag'larning 10 foizi O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligining byudjetdan tashqari "Sport" maxsus hisob-raqamiga o'tkazilganidan so'ng qolgan mablag'larning kamida 75 foizi moddiy-texnik bazani mustahkamlashga hamda ko'pi bilan 25 foizi byudjet tashkilotlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish va moddiy rag'batlantirish tadbirlariga sarflanadi" deb belgilab quyilgan [6].

Respublikamizda sport sohasini rivojlantirish borasida keng ko'lamda olib borilayotgan ma'muriy va huquqiy islohotlar natijasida sohaga tegishli qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi sport sohasi rivojiga samarali xizmat qilmoqda (1-rasm). Xususan, hozirgi kunda milliy va xalqaro sport turlarini rivojlantirish, Jahon va Osiyo musobaqalarida, Olimpiada va paraolimpiada musobaqalarida qatnashish, sport maktablarida tahsil olish va musobaqalarga tayyorgarlik ko'rishda sportchilarni tayyorlash ishlarini huquqiy jihatdan himoya qilish va moliyalashtirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.



1-rasm. Sport sohasini rivojlantirishga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar ierarxiyasi¹

Sport sohasidagi tashkiliy-huquqiy munosabatlarni tartibga solish borasida izlanishlar olib borgan mahalliy tadqiqotchilardan Sh.Dadebaeva va O.Oktyulovlar tomonidan "Sport sohasidagi erishilgan yutuqlar nafaqat davlatning mavqeini ko'taradi, balki sportchilar va ularning sohasidagi tashkilotlar, federatsiyalarga katta daromad olib keladi va yangi ish o'rinlarini yaratadi, sog'lom turmush tarzini targ'ib etib, mamlakat aholisining ishchanlik ruhiyatiga, mehnat qobiliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, sport sohasida sportchilar bilan shartnomaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solish, transfer munosbatlariga oid fuqarolik-huquqiy shartnomalarni tuzish masalalariga alohida ahamiyat qaratish" borasida tadqiqotlar olib borgan [7].

Sport sohasini huquqiy tartibga solish borasida respublikamizda faoliyat yuritayotgan sportchilarning huquqlarini tartibga solish va xalqaro huquq me'yorlari asosida sportchilarni transfer qilish borasida shartnomaviy-huquqiy munosabatlarni yanada takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Sport sohasini huquqiy tartibga solish borasida Mustaqil davlatlar hamdo'stligi misolida ko'radigan bo'lsak, Rossiya Federatsiyasining 2007-yil 4-dekabrdagi 329-FZ-sonli "Rossiya Federatsiyasida jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" gi Federal qonunining "Jismoniy tarbiya va sportni moliyalashtirish" nomli 38-moddasida Rossiya Federatsiyasining xarajat majburiyatlarini quyidagilar tashkil etishi belgilab quyilgan:

1) Rossiya Federatsiyasi sport delegatsiyalari va sport terma jamoalarining moddiy-texnik ta'minoti, jumladan, sport anjomlari bilan ta'minlash, moliyaviy, ilmiy-uslubiy, tibbiy-biologik, tibbiy va antidoping, shuningdek, Rossiya Federatsiyasining

¹ Sohaga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish va umumlashtirish asosida tadqiqotchi tomonidan tuzilgan.

sport terma jamoalarini xalqaro sport musobaqalariga, Olimpiya uyinlariga tayyorlashda qatnashish va xalqaro sport tadbirlarida ishtirokini ta'minlash va moliyalashtirish;

2) Rossiya Federatsiyasining nogiron sportchilardan iborat sport terma jamoalarini umumrossiya va xalqaro sport musobaqalariga, Paraolimpiya uyinlariga, Surdlimpiya uyinlariga [8], Butunjahon maxsus Olimpiya uyinlariga tayyorlash tadbirlarini moliyalashtirish;

3) Rossiya Federatsiyasining Federal byudjet mablag'lari hisobidan sport ob'ektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash, shuningdek, Rossiya Federatsiyasi sub'ektlari mulkida munitsipial mulk, yuridik shaxslar yoki jismoniy shaxslar mulki hisobiga sport inshootlarini qurish va ularni saqlashni moliyalashtirish ishlarini amalga oshirishdan iborat [9].

Rossiya Federatsiyasi Hukumatining 2020-yil 29-apreldagi "Rossiya Federatsiyasida jismoniy tarbiya va sportni 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi" №3081-r-sonli sport sohasini moliyalashtirishda metsenatlik faoliyatini tashkil etish hamda homiylik tizimini rivojlantirish masalalari alohida belgilab berilgan. Strategiyaning beshinchi ustuvor yo'nalishi "Moliyaviy ta'minlash" ga qaratilgan bo'lib, "Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish" bo'yicha davlat dasturini amalga oshirish uchun mo'ljallangan mablag'larni byudjetdan tashqari manbalar hisobidan moliyalashtirishga alohida e'tibor qaratish shartligi belgilab berildi. Shuningdek, jismoniy tarbiya va sportga tegishli xarajatlarning umumiy konsolidatsiyalashgan byudjetdagi ulushini kamida 2,4 foiz darajasida saqlash vazifasi belgilandi [10].

Sport sohasini moliyalashtirish borasida Belorusiya Respublikasining 2014-yil 4-yanvardagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" gi №125-3-sonli qonuni qabul qilingan bo'lib, ushbu qonun 9 ta bo'lim va 76 ta moddani o'z ichiga oladi. Ushbu qonunning 65-moddasi "Jismoniy tarbiya va sportni moliyalashtirish" deb nomlanib, unda sportni moliyalashtirish quyidagi manbalar hisobidan amalga oshirilishi belgilab berilgan, ya'ni:

- respublika va mahalliy byudjet mablag'lari;
- jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari mablag'lari;
- homiylarning ixtiyoriy yordam mablag'lari;
- qonunchilik bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar [11].

Belorusiyada sport sohasini moliyalashtirishning huquqiy jihatlari sifatida ajratiladigan mablag'lar aniq maqsadlarga ishlatilishi belgilab quyilgan. Shuningdek, qonunning ahamiyatli jihati shundaki, sportni moliyalashtirgan homiylarga mol-mulk, yer solig'i va foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar berish to'xtatildi. Sport klublarini byudjetdan moliyalashtirish saqlab qolindi. Belorusiya Hukumati hamda Sport va turizmi vazirligi bevosita sport federatsiyalari va sport klublarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha ajratiladigan mablag'lardan foydalanish borasida qonun me'yorlariga rioya etilishini nazorat qilish funksiyasi takomillashdi.

Qozog'iston Respublikasida ham sport sohasini moliyalashtirishning huquqiy jihatlari to'xtalib o'tadigan bo'lsak, 2014-yil 3-iyulda №228-V ZRK – sonli "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" gi qonuni qabul qilingan bo'lib, qonunning 49-moddasi "Jismoniy tarbiya va sportni moliyalashtirish" deb nomlanadi. Jismoniy tarbiya va sportni moliyalashtirish Qozog'iston Respublikasi qonunchiligida taqiqlanmagan byudjet mablag'lari va boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi. Qonunning e'tiborli jihati

shundaki, Qozog'iston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan sportchilarni byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish taqiqlanadi. Qozog'iston Respublikasida byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish asosan quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

1. Oliy sport mahoratini rivojlantirish, shu jumladan ustuvor sport turlarini rivojlantirish bo'yicha;
2. Davlat jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari faoliyatini ta'minlash bo'yicha;
3. Ommaviy sportni rivojlantirish bo'yicha;
4. Sport infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha [11].

Sport sohasini rivojlantirish borasida 2023-yil 28-martda №251-sonli "Qozog'iston Respublikasida 2023-2029 yillarga mo'ljallangan jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi qabul qilingan. Sport sohasini moliyalashtirish borasida alohida maqsad va vazifalar konsepsiyada belgilab berilgan bo'lib, unga ko'ra, jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport inshootlari reestriga muvofiq ravishda faoliyat yuritayotgan sog'lomlashtirish va sport inshootlarini inventarizatsiya qilish hamda hududlarda sport inshootlari qurilishiga ehtiyojni aniqlash maqsadida ishchi monitoring guruhlarini hududlarga xizmat safariga chiqarish, 113 ta yangi sport inshootlarini qurish, qishloq joylarida kichik byudjetli sport majmualarini qurish, sport infratuzilmasini barpo etish sohasida tadbirkorlikni rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish, sport inshootlari qurishga sarflangan moliyaviy xarajatlarning bir qismini qoplash yoki sport ob'ektini qurgan taqdirda kamida kafolatlangan daromadni ta'minlash mexanizmlarini joriy etish belgilab berilgan [11].

Xulosa va takliflar

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasini ustuvor rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ma'muriy-huquqiy islohotlar natijasida sohada qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar bevosita sport sohasini tubdan rivojlantirishga, sport sub'ektlari manfaatlarini himoya qilishga, sport sohasini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish hamda sport sohasini xalqaro standart talablari asosida takomillashtirishga xizmat qiladi.

Birinchidan, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanayotgan aholining umumiy sonini 30 foizgacha, sport tashkilot va muassasalarida shug'ullanayotgan yoshlarning umumiy sonini 20 foizgacha oshirish;

Ikkinchidan, davlat sport ta'limi muassasalarida trener va mutaxassislarning sifat tarkibi, xususan oliy ma'lumotli xodimlar sonini bosqichma-bosqich 80 foizga yetkazish;

Uchinchidan, joylarda yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni tanlab olish (seleksiya) ning samarali va shaffof to'rt bosqichli – tashkilot – tuman (shahar) – hudud – respublika tizimini ishlab chiqish va joriy etish.

Xulosa o'rnida aytish joizki, sport sohasini moliyalashtirishda davlat byudjeti mablag'laridan tashqari xususiy mablag'lardan, homiylik yoki metsenatlik faoliyati mablag'laridan, davlat-xususiy sheriklik asosida boshqa turdagi moliyaviy mablag'larni ham jalb etish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 14-yanvardagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" gi 513-XII-sonli Qonuni. (Hujjat kuchini yo'qotgan 26.05.2000). <https://lex.uz/uz/docs/10860>
2. O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Gruziya Respublikasi Hukumati o'rtasida "Jismoniy tarbiya va sport sohasida xalqaro hamkorlik qilish to'g'risida" Bitim. 04.09.1995 yil. <https://lex.uz/uz/docs/2422963> O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 26-maydagi 76-II-sonli "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" gi Qonuni. (Hujjat kuchini yo'qotgan 04.09.2015). <https://lex.uz/uz/docs/63106>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 14-iyundagi "Sport terma jamoalari to'g'risidagi Nizomni hamda sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar ish rejasini shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida" gi 173-sonli qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-2020339>
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son. <https://lex.uz/docs/6445145>
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida" gi 03.09.1999-yildagi 414-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/319286>
6. Ш.Дадебаева, О.Окюлов. Фуқаролик ҳуқуқида спорт шартномаларини тартибга солиш билан боғлиқ масалалар. // Жамият ва инновациялар. Special Issue – 02(2022). 141-146 бетлар.
7. Российская Федерация Федеральный закон «О физической культуре и спорте в Российской Федерации» от 04.12.2007. №329-ФЗ. https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_73038/
8. Стратегия развития физической культуры и спорта в Российской Федерации на период до 2030 года. Утверждена распоряжением Правительства Российской Федерации от 24 ноября 2020 г. №3081-р. <https://www.minsport.gov.ru/activity/strategy/>
9. Закон Республики Беларусь «О физической культуре и спорте» от 4.01.2014. №125-3. <https://www.mst.gov.by/data/files/2025/zakon-respubliki-belarus-125.pdf>
10. Закон Республика Казахстан "О физической культуре и спорте" Астана, Акорда, 3 июля 2014 года №228-V ЗРК. https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31576150&show_di=1&pos=1674;-52#pos=1674;-52
11. Об утверждении Концепции развития физической культуры и спорт Республики Казахстан на 2023-2029 годы. Постановление Правительства Республики Казахстан от 28 марта 2023 года №251. <https://zakon.uchet.kz/rus/docs/P2300000251>

Copyright © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

